

Qish tunlarining birida yo'l bo'ylab ketayotgan tulkining qorni och edi. Bulutlar osmonda osilib turar, dalaga qor uchqunlari sochilib sochilib tushar, qor maydalab yog'ardi.

"Hechqursa, bir tishlam yegulik bo'lsaydi", - debdi tulki. U yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi; yo'lda yotgan chipta kavushni ko'rib qolibdi. "Joyi kelsa, shu chipta kavush ham asqotib qolar" - o'ylabdi u. Kavushni tishlab olibdi - da, yo'lida davom etibdi.

Qishloqqa kirib, birinchi kulbani taqillatibdi.

- Kim u? so'rabdi dehqon darchasini ochayotib.

- Bu men, ey, yaxshi odam, tulkixon singiljonman. Tunashga joy ber!

- Biz sensiz ham tiqilib yotibmiz! debdi qariya va darchasini yopmoqchi bo'libdi.

- Menga ko'p narsa kerak emas, - o'tinib so'rabdi tulki. - O'rindiqa yotsam ham bo'laveradi, dumimni esa uning tagiga qo'yaman.

Cholning unga rahmi kelibdi va uyiga uirgizibdi. Tulki unga debdi:

- Hoy, dehqon, chipta kavushimni berkitib qo'y!

Dehqon uning kavushini olib, pechkaning tagiga otib yuboribdi.

Hamma uyquga ketibdi, shunda tulki o'rindiqdan sekin tushibdi-da, kavushni o'g'irlab, pechkadan uzoqroq joyga tashlabdi. Ortiga qaytib, hech narsa bo'lmaganday, o'rindiqa yotib olibdi, dumini o'rindiqlarning tagiga joylabdi.

Tong ota boshlabdi. Odamlar uyg'onishibdi; kampir pechga o't qalabdi, chol o'tin terib kelgani o'rmonga o'tlanibdi. Tulki o'rnidan turibdi-yu, chipta kavushi tomon oshiqibdi. Qarasa, kavushi joyida yo'q. U chinqira boshlabdi:

- Meni xafa qildi bu qariya, ochiq ko'ngilligimdan foydalandi. Chipta kavushimning o'rniga tovuq ham olmayman!

Chol pechning ostiga ko'z yugurtiribdi - chindan ham chipta kavush yo'q! Nima qilish kerak? Axir, o'z qo'llari bilan qo'ygan edi-ku! Tovuqni olibdi-da, tulkiga tutibdi. Tulki tinmay tovuqni olmayman, deb baqirar, ovozi qishloqni tutib ketar, hadeb qariya uni xafa qilganini ta'kidlar ekan.

Chol bilan kampir tulkining ko'nglini olay deb unga kosachaga sut quyib berishibdi, nonni ushatib, tuxum qovurishibdi. Tulki shuni kutib turgan ekan. O'rindiqa sakrab chiqib olibdi, nonni yebdi, sutni simiribdi. Tuxumni paqqos tushirib, tovuqni olib, to'rvasiga solibdi. Uy egalari bilan xayrlashib, yo'lga tushibdi.

Yo'l bo'yi qo'shig'ini boshlabdi:

B B B B Zim-ziyo tun oralab

B B B B Ketib borar tulkixon

B B B B Qorni och va bedarmon.

B B B B Yurib-yurib bir kuni

B B B B Topib olibdi kavush.

B B B B Oqko'ngil odamlarni

B B B B Aldab, qipti ayyor ish

B B B B Bitta chipta kavushni

B B B B Tovuqqa alishibdi.

Kech yaqin u boshqa qishloqqa yetib boribdi. Taq-taq-taq! tulki kulbani taqillatibdi.

- Kim u? so'rabdi dehqon.

- Bu men, tulkixon singiljon. Amakijon, tunashga joy ber!

- Sensiz ham tiqilib yotibmiz, yo'lingdan qolma, - debdi dehqon va derzasini yopib olibdi.

- Men sizlarni siqib qo'ymayman, - debdi tulki. O'zim o'rindiqa yotib olaman, dumimni o'rindiqlarning tagiga qo'yaman, vassalom! Tulkini uyga kiritishibdi. U uy egasiga egilib salom beribdi-da, tovuq'ini saqlab berishini so'rabdi. O'zi o'rindiqlarning bir chekkasiga o'rinishib, yotib olibdi. Dumini o'rindiqlarning tagiga burab qo'yibdi. Xo'jayin tovuqni olib, panjara ortidagi o'rdaklar orasiga qo'shib yuboribdi. Tulki bularning hammasini ko'rib turgan ekan. Uydagilar uyquga ketgach, tovuq'ini o'rdaklar ichidan chiqarib olibdi va bir pasda yeb qo'yibdi. Patlari, suyaklarini pechka ostiga ko'mib, ishni qoyillatganday o'rindiqlarning ustiga sakrab chiqibdi, kuchala bo'lib yotib olibdi - da, uyquga ketibdi.

Tong yorishibdi. Kampir pechni yoqishga kirishibdi, dehqon sigirlarga yem beribdi. Tulki uyg'onib, yo'lga tayyorlanibdi. Uy egalari minnatdorchilik bildirib, tovuq'ini so'rabdi.

Dehqon qarasa, tulkining tovuq'ini yo'q! U yoqqa yuguribdi bu yoqqa yuguribdi, o'rdaklarini birma bir ko'rib chiqibdi. Juda g'alati tovuq yo'q!

Tulki ovozi baralla qo'yib, aytib aytib yig'isini boshlabdi:

- O, mening tovuqcham, qoramag'iz tovuqcham! Seni semiz semiz o'rdaklar bitalab cho'qib - cho'qib, zangor patli o'rdaklar qoqib

- qoqib tashlashdimi? Seni hech qanday o'rdakka almashmayman!

Kampirning tulkiga rahmi kelibdi, choliga debdi:

- Unga o'rdak beramiz, qornini ham to'ydiramiz.

Tulkini yedirib ichirib, qo'lga o'rdakni tutqazib, darvozadan chiqarib qo'yishibdi.

Tulkixon yo'l bo'yi lablarini yalab yalab, qo'shiq aytibdi:

B B B B Zim-ziyo tun oralab

B B B B Ketib borar tulkixon

B B B B Qorni och va bedarmon.

B B B B Yurib yurib bir kuni

B B B B Topib olibdi kavush.

B B B B Oqko'ngil odamlarni

B B B B Aldab, qipti ayyor ish

B B B B Bitta chipta kavushni

B B B B Tovuqqa alishibdi.

B B B B Tovuqqa esa o'rdak.

Tulki uzoq - yaqin, qisqa-uzun yo'l bosibdi. Qosh qorayibdi. Uylar ko'ringan tomonga burilibdi. Eshikni taqillatibdi: taq-taq-taq.

- Kim u? so'rabdi uy egasi.

- Tulkixon singiljonman, yo'lda sirg'alib ketdim, judayam sovuqotdim. Qochaverib - qochaverib oyoqlarim toliqdi! Ey, yaxshi odam, meni uyingga kirgiz, dam olib, isinib olay!

- Qo'yay deymanu, tulkijon, joy yo'q-da!

- Ey, otaginam, o'zim o'rindiqqa sig'aman, dumimni uning tagiga tashlab qo'yaman bo'ldi!

Qariya o'ylay-o'ylay, tulkini ichkariga kirgizibdi. Tulki xursand bo'libdi. Uy egalariga ta'zim qilibdi, ertalabgacha yassiburun o'rdagini saqlab berishlarini so'rabdi. Ular tulkining o'rdagini g'ozlar orasiga qo'yib yuborishibdi. Tulki esa o'rindiqqa o'rnashib, dumini o'rindiq tagiga joylab, xurрак ota boshlabdi.

- Ko'ngli ochiq ekan, bechora charchabdi, uxlab qoldi, - debdi kampir.

Ko'p o'tmay uy egalari uyquga ketishibdi. Tulki o'rindiqdan sekin tushib, g'ozlarning orasidan yassiburun o'rdagini ushlab olibdi.

Uni tishlab tishlab, patlarini yulib-yulib, tozalabdi, yebdi. Suyaklari va patlarini pechning ostiga ko'mibdi. Bamaylixotir uyquga ketibdi, kun yorishib ketguncha uyg'onmabdi. Ko'zini ochib, kerishibdi, atrofqa qarabdi. Kulbada kampirning bir o'zi ekan.

- Bekajon, xo'jang qani? so'rabdi tulki. u bilan xayrlashib, issiq joy uchun minnatdorlik aytmoqchi edim.

- U bozorga ketgan, - debdi kampir.

- Unda xush qol, bekajon, - debdi tulki egilib-egilib. Yassiburun o'rdakcham ham uyg'ongandir. Uni keltir, tezroq yo'lga tushishimiz kerak.

Kampir qarasa - o'rdak yo'q! Nima qilsin, qaerdan topsin? Qaytarish kerak, axir! Kampirning ortida tulki turar, ko'zlarini olaytirib, bor ovozi bilan, yig'isini boshlabdi: o'rdagi bor uning - dovuqli, betakror, do'mboqqina, kumushrang. Bunday o'rdagini hech qanday g'ozga almashmaydi.

Beka qo'rqib ketibdi. Tulkiga egilib - egilib debdi:

- Olaqol, onajonim Tulkixon Patrikeevna, istagan g'ozni olaqol! Men seni mehmon qilaman. Yog'imni ham, tuxumimni ham ayamayman.

Tulki qornini to'ydirib olibdi. Semiz, yog'li g'ozni tanlabdi, to'rvasiga solibdi. Bekaga ta'zim keltirib, yo'lga tushibdi. Yo'lda ketayotib, qo'shig'ini boshlabdi:

B B B B Zim-ziyo tun oralab

B B B B Ketib borar tulkixon

B B B B Qorni och va bedarmon.

B B B B Yurib yurib bir kuni

B B B B Topib olibdi kavush.

B B B B Oqko'ngil odamlarni

B B B B Aldab, qipti ayyor ish

B B B B Bitta chipta kavushni

B B B B Tovuqqa alishibdi.

B B B B Tovug'iga o'rdakni,

B B B B O'rdakka semiz g'ozni!

Tulki yo'lda charchab qolibdi. To'rvadagi semiz g'ozni ko'tarish qiyinlashib borarkan: dam o'tiribdi, dam yuguribdi, dam turibdi. Qorong'u tushibdi. Qaysi eshikni taqillatmasin, ochishmabdi, rad etishibdi. Eng so'nggi kulbaga yetib kelibdi, astagina taqillatibdi: tuk tuk tuk.

- Nima kerak? ovozi kelibdi uy egasining.

- Qadrdonim, isinib olay, tunashga joy ber!

- Joy yo'q! Sensiz ham tiqilib yotibmiz!

- Men hech kimni siqib qo'ymayman, - debdi tulki. O'zim o'rindiqqa yotib olaman, dumimni uning tagiga qo'yaman.

Xo'jayinning rahmi kelibdi, uyiga kiritibdi. Tulki undan g'ozini saqlab berishini so'rabdi. Uy egasi uni panjara ortidagi kurkalarga

qo'shib qo'yibdi da, o'ylanib qolibdi. Shu kunlarda bozor tomonlardan ayyor tulki haqida mish mishlar tarqalayotgan ekan. "Bu o'sha hamma gapirayotgan tulki emasmikan?" o'ylabdi chol va uni kuzata boshlabdi. Tulki o'zini esli xushli, odobliday tutibdi.

o'rindiqning ustiga chiqib, yotib olibdi, dumini uning tagiga joylabdi. Kampirning xurragi eshilibdi. Chol ko'zlarini jo'rttaga

yumib olibdi. Tulki panjara ortiga sakrab tushibdi. G'ozini tutib, tishlab tishlab, tozalab olibdi - da, yeyishga tushibdi. Yeb yeb

dam olarkan. Axir, birdaniga shunday semiz g'ozni birdan tugatib bo'lmas ekan-da! Chol barisini kuzatib turgan ekan. Tulki suyak va patlarni pechkaning tagiga ko'mibdi-da, joyiga borib yotibdi va uyquga ketibdi.

U uzoq uxlab qolibdi, xo'jayin uni uyg'otibdi:

- Tulkijon, yaxshi uxlab turdingmi?

Tulki kerishib, ko'zlarini ishqalabdi.

- Izzating borida yo'lga tush, - debdi xo'jayin eshikni lang ochib.

Tulki unga javoban:

- Uyni sovuqmasangiz yaxshi bo'larmidi, yo'limni o'zim topib olaman. Oldin berib qo'ygan omonatimni olay, devdim. Qani, g'ozimni ber!

- Qaysi?

- Qechqurun senga berganim da. Olgan eding, to'g'rimi?

- Ha, olgandim, - dedi xo'jayin.

- Olgan bo'lsang, qaytar, - qistadi tulki.

- G'ozing panjara ortida yo'q, ishonmasang, o'zing borib qara, - kurkalar bor, xolos.

Buni eshitgan ayyor tulki o'zini yerga tashlab, har yoqqa urib, yig'isini boshlabdi: u g'ozini hech bir kurkaga almashmaydi!

Dehqon tulkining shumligini fahmlab qolibdi. "To'xtab tur, - debdi u ichida. Sen bu g'ozingni ko'p eslaysan hali!"

- Nimayam qildik, sen bilan kelishib olamiz, shekilli.

Unga g'oz o'rniga kurka berishga va'da beribdi. To'rvaga kurkani emas, bildirmay itini solibdi. Tulki buni sezmabdi. To'rvasini yelkasiga ortib, xo'jayin bilan xayrlashib, yo'lga tushibdi.

Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. O'zi va chipta kavushi haqidagi qo'shig'ini aytgisi kelibdi. To'rvasini yerga qo'yib,

o'tiribdi. Qo'shig'ini boshlamoqchi bo'lgan ekan, birdan to'rvadan xo'jayinning iti otilib chiqibdi, tulkiga tashlanibdi. It quvgandan

This is not registered version of TotalDocConverter  
- qulqul, jon qulqul, sizlar nima qildingizlar?

Ikkalasi yugurib yugurib, o'rmonga kirib kelishibdi. Tulki kundalar, butoqlar oralab, it uning izidan chopibdi. Tulking baxtiga qarshisidan uya chiqib qolibdi, unga o'zini otibdi. It uyaga sig'mabdi, tulki chiqib qolarmikan deb, uning yonida kuta boshlabdi. Tulki qo'rqqanidan nafas ololmas ekan. Sal o'ziga kelgach, o'ziga o'zi gapira boshlabdi:

- Quloqlarim, jon quloqlarim, sizlar nima qildingizlar?
- Bizlar it tulkini yeb qo'ymasin deb diqqat bilan tingladik.
- Ko'zlarim, jon ko'zlarim, sizlar nima qildingiz?
- Bizlar it tulkini yeb qo'ymasin deb kiprik qoqmay qaradik.
- Oyoqlarim, jon oyoqlarim, sizlar nima qildingiz?
- Bizlar it tulkini ushlab olmasin deb to'xtamasdan tez yugurdik.
- Dumcham, hoy dumcham, sen nima qilding?
- To'nkalar, butoqlarga chirmashib qolmagin deb yo'l bermadim.
- Hali senmi meni qochishimga yo'l bermagan! Mana, senga bo'lmasa! debdi tulki va dumini o'radan chiqarib, itga qichqiribdi:
- Ol, mana buni ye!

It tulkini dumidan ushlabdi - da, uyadan tortib olibdi.